



BUXORO PSIXOLOGIYA VA
XORIJIY TILLAR INSTITUTI

ILMIY AXBOROTNOMASI

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

№ 3, 2024

№ 3, 2024

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК * SCIENTIFIC BULLETIN



<http://buxpxti.uz>

Olloqova O'g'iljon Mamanazarovna
Buxoro davlat universiteti
Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi
E-mail: o.m.olloqova@buxdu.uz

2-SINF ONA TILI DARSLIGI: FONETIK VA MORFOLOGIK BILIMLAR TIZIMI

Annotasiya. So'z har qanday so'z birikmasi, gap va matn kabi sintaktik butunliklarning asosi, birlamchi material sanaladi. Nutq birligi bo'lgan so'z tovushdan tashkil topgan bo'lib, ijtimoiy hodisa sifatida yuzaga keladi. Tovush va harf tilning eng kichik birligi sifatida tadqiq qilinib, 1-sinfda alifbe davridan boshlab o'rgatila boshlanadi. Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limining keyingi bosqichlarida tovush va harflar imlosi hamda talaffuzi bilan bog'liq qoidalar o'rganiladi. Maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida tovush va harflarga oid mavzularni tabiiy fanlar bilan o'zaro bog'lash orqali morfologik va sintaktik bilimlarni berish mazmuni ochib berilgan. Shuningdek, 2-sinf ona tili darsligidagi ayrim mashqlarni fanlararo integratsiyalash qonuniyatiga tayangan holda tushuntirish metodikasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: tovushlar va harflar, nutq tovushlari, tabiiy tovushlar, sezgi a'zolari, eshitish a'zosi, shaxs va narsaning nomi, belgisi, sanog'i, harakatini bildirgan so'zlar, morfologik bilim.

УЧЕБНИК РОДНОГО ЯЗЫКА ЗА 2 КЛАСС: СИСТЕМА ФОНЕТИЧЕСКИХ И MORFOLOGИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ

Аннотация. Слово считается основой и первичным материалом синтаксической единицы, такой как любое сочетание слов, предложения и текста. Слово, являющееся речевой единицей, состоит из звуков и встречается как социальное явление. Звук и буква изучаются как мельчайшая единица языка и преподаются в I классе со времен обучения правописанию. Правила, связанные с написанием и произношением звуков и букв, изучаются на следующих этапах обучения родному языку в начальных классах. В статье раскрывается содержание передачи морфологических и синтаксических знаний путем соединения тем, связанных со звуками и буквами, с естественными науками на уроках родного языка в начальных классах. Также поясняется методика объяснения, основанная на законе междисциплинарной интеграции некоторых упражнений учебника родного языка для 2 класса.

Ключевые слова: звуки и буквы, звуки речи, звуки природы, органы чувств, орган слуха, слова, обозначающие имя, знак, счет, движение человека и вещи, морфологические знания.

2ND CLASS MOTHER TONGUE TEXTBOOK: PHONETIC AND MORPHOLOGICAL KNOWLEDGE SYSTEM

Annotation. The word is considered the basis and primary material of syntactic units such as any combination of words, sentence and text. A word, which is a speech unit, is made up of sounds and occurs as a social phenomenon. Sound and letter are studied as the smallest unit of the language and are taught in the 1st grade from the time of the alphabet. The rules related to the spelling and pronunciation of sounds and letters are studied at the next stages of mother tongue education in elementary grades. The article reveals the content of imparting morphological and syntactic knowledge by connecting topics related to sounds and letters with natural sciences in primary class mother tongue classes. Also, the method of explanation based on the law of interdisciplinary integration of some exercises in the 2nd grade mother tongue textbook is explained.

Key words: sounds and letters, speech sounds, natural sounds, sense organs, auditory organ, words indicating the name, sign, count, movement of a person and thing, morphological knowledge.

Kirish. Ta'lim maqsadi o'quv-biluv jarayoni, uning mohiyati, mazmunini, usul va vositalari, o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari, shuningdek, mazkur tizimning samaradorligi qanday shaxs yoki mutaxassisini shakllantirishni ham belgilaydi. Ta'lim maqsadining ijtimoiy buyurtma asosida ifodalani-shi shaxs, davlat, jamiyat, fan-texnika hamda ishlab chiqarishning umumiy taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi. Demak, ta'lim maqsadi jamiyat ehtiyojlarini ifodalaydi va uning rivojlanishini belgilaydi. Butun ta'lim jarayoni - o'quv materialidan boshlab, ta'lim natijasigacha ta'lim maqsadidan kelib

chiqqan holda belgilanadi. Ta'lim maqsadi oldida turgan asosiy masala bugungi kun va istiqbolda jamiyat ravnaqi uchun qanday shaxs, mutaxassis tayyorlash kerakligi bilan xarakterlanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston xalqiga yo'llagan murojaatnomasida "Ta'lim sifatini oshirish - Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir", - deya ta'kidladi. Boshlang'ich ta'lim maqsadi ro'yobini ta'minlashda zamonaviy ta'lim texnologiyalar muhim ahamiyatga egadir.

Asosiy qism. Har qanday fanni o'qitishda mufaffaqiyatga erishish uchun albatta bu fan uchun yaratilgan darslik juda katta ahamiyatga ega. Darsliklarni yaratilishida pedagogik, psixologik, ilmiy, metodik, ma'naviy-axloqiy, estetik, dizayn, ekologik hamda gigiyenik talablar qo'yiladi. Boshlang'ich sinflar uchun yaratilgan yangi ona tili darsliklari aytilgan barcha talablarga javob beradi.

Bugungi kunda yangi avlod darsliklari o'quvchining fikrini o'stirishda, uning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda muhim o'rin egallamoqda. Yangi darsliklar yangicha metodlar, yangidan-yangi didaktik materiallar bilan ishlashda qo'l kelmoqda. Bu degani yangi darsliklar o'qituvchining ham o'z ustida ko'proq ishlashga sabab bo'lmoqda. Darslik bilan o'quv jarayoni o'zaro bog'liq bo'lib, unda savollar, topshiriqlar, jadvallardan, statistik, xronologik ma'lumotlar va boshqalardan o'z o'rnida foydalanish lozim. Darsliklarda berilgan ko'plab materiallar hozirgi kun talabiga to'liq javob bera oladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun yangi darsliklar yaratish, mazmunini takomillashtirish, o'qitish metodikalarini ishlab chiqish muammolari bugungi ilmiy tadqiqot markazida turibdi. Respublikamiz olimlaridan A.R.Qo'ldoshev O'zbekistonda boshlang'ich sinf darsliklari yaratilishining metodik asoslari, Q.T.Olimov esa maxsus fanlardan o'quv adabiyotlarini yaratishning nazariy va uslubiy asoslari muammosi ustida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Darsliklar mazmunining yangilanishi o'qituvchilar oldiga ham qator vazifalarni yuklaydi. O'qituvchilar darslik mazmuniga mos bo'lgan vosita va metodlarni tanlashi, xalqaro tajribalarni o'rganishi, bugungi kun talabiga mos bo'lgan o'quv mashg'ulotini tashkil etishi, darsliklardagi mashq va topshiriqlar ustida tizimli ishlashi, o'quvchilar bilimni baholashning zamonaviy usullaridan foydalanishi lozim. Ayniqsa, boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quv topshiriqlari ustida ishlash jarayonida fanlararo integratsiyani ta'minlash orqali o'quvchilarning lingvistik bilimni orttirishi, og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishi, tafakkurini boyitish ustida uzluksiz ishlashi lozim.

Biz quyida 2-sinf ona tili (1-qism) darsligidagi ayrim mashqlarning tahlil namunasini keltiramiz.

Muhokamalar va natijalar. 2-sinf ona tili darsligining birinchi mavzusi "O'zbekiston – mustaqil davlat. Tovushlar va harflar" deb nomlanadi. 1-mavzu orqali O'zbekiston mustaqil davlatligi, poytaxti Toshkent shahri ekanligi, tarixiy obidalariga boy qadimiy shaharlari, yurtimizning go'zalligi, ramzlari haqida bilim beriladi.

Darslikning 4-5-betlarida bobo va nabiralarning davlat haqidagi suhbatini berilgan. Bobo davlatning o'z maydoni, aholisi, qonunini bo'lishi kerakligini aytadi. Qiz nabira esa davlatni o'zining oilasiga o'xshatgan.

Bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, vatanni, xalqini sevishga o'rgatish, ularda milliy ong, milliy g'ururni shakllantirish, milliy an'analar ruhida tarbiyalashda davlat va jamiyat haqidagi qarashlarini tarkib toptirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarda huquqiy ong, huquqiy madaniyatni shakllantirish keng qamrovli faoliyat bo'lib, tizimli ravishda barcha fanlar bilan bog'liq holda amalga oshirishni talab qiladi.

Umumiy o'rta ta'limning ilk bosqichidan boshlab mustaqillik, erkinlik, haq-huquq, qonun, "mumkin", "mumkin emas" kabi tushunchalar amaliy o'rgatila boshlaydi. Uzviylik va uzluksizlik tamoyillarini ta'minlash maqsadida ta'limning keyingi bosqichlarida yuqoridagi siyosiy tushunchalar orqali o'quvchilarning g'oyaviy, siyosiy tafakkurini rivojlantirish maqsadida huquqiy ongga oid tushunchalar keltirilgan.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish jarayonida umuminsoniy fazilatlariga ega bo'lish, vatanni sevish, huquqiy, iqtisodiy bilimlarga ega bo'lish, yangiliklarga intilish va o'zlashtirgan nazariy bilimlari asosida mustaqil qaror qabul qilish, jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlar, jumladan, ijtimoiy hayot, kishilarning yashash tarzi bilan bog'liq bo'lgan o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini shakllantirish ko'zda tutilgan.

Berilgan matn orqali yuqori sinflarda o'rganiladigan "Davlat va huquq asoslari" fanini o'qitishga zamin tayyorlash mumkin. Davlatning tuzilish shartlari, davlat ramzlari, qonunchiligi, Konstitutsiyasi, tili va madaniyati haqida ma'lumot berish mumkin.

O'quvchilarning matnni idrok qilish, tushunish, anglash kabi ko'nikmalari qay darajada o'zlashtirayotganini bilish maqsadida savollar orqali ramzlar haqidagi tasavvurlarini aniqlash mumkin.

1. Davlatning yana qanday belgilarini bilasiz?
2. Davlatning o'z tili va alifbosi ham bo'lishi kerakmi?
3. O'zbek tilida nechta tovush va harf bor?

Birinci savolda davlatning alohida belgilariga e'tibor qaratilgan. O'quvchilar bilan tashkil etilgan suhbat davomida davlatchilik belgilari xususida tasavvur uyg'otiladi. O'quvchilar yuqoridagi savollarga javob berish orqali so'zlar va ularning ma'nolari ustida ishlash ko'nikmasiga ega bo'ladi. Jumladan, shaxs va narsa, uning harkati, belgisi, miqdori kabi bilimlar ustida ishlanadi.

Natijada o'quvchilar shaxs va narsaning belgisini bildirgan so'zlar haqidagi bilimlarni takrorlab olishadi. Qo'shimcha belgini bildirgan so'zlarga misollar ham aytirish mumkin.

Darslikning 6-betida "Yodda tuting" shartli belgisi bilan ifodalangan topshiriq berilgan. Topshiriq sharti "E'tibor bilan o'qing".

"Biz - odamlar atrofimizdagi turli xil tovushlarni eshitamiz:"

Rasm orqali nimalarni eshitysh mumkinligi tasvirlangan.

Nazarimizda, darslikda berilgan topshiriqlarni to'liq tushunish uchun o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish maqsadida lingvistik bilimlarini, ya'ni shaxs va narsalarning nomini, harakatini, belgisini, sanog'ini bildirgan so'zlarga doir bilimlar rivojlantiriladi. Ushbu bilimlar tanlangan so'zlarga so'roqlar berish, so'roqlarga mos so'zlar tanlash kabi topshiriqlar asosida tarkib toptiriladi.

2-sinf ona tili (1-qism) darsligida fonetik bilimlarni rivojlantirishga doir tovushlar va harflar, unli tovushlar va harflar, undosh tovushlar va harflar, jarangli va jarangsiz undosh tovushlar, j, x va h tovushlarining talaffuzi va imlosi, harf birikmasi bilan ifodalangan undoshlar, tutuq belgisi, bo'g'in, bo'g'in ko'chirish, so'z ichida yonma-yon kelgan bir xil undoshlar talaffuzi va imlosi kabi bilimlar o'rganilishi ko'zda tutilgan.

2020-yil qabul qilingan "Milliy o'quv dasturi"da 2-sinf o'quvchilari "Tovushlar va harflar" mavzusini o'rganish orqali rivojlantiriladigan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash ko'zda tutilgan:

og'zaki va yozma nutqqa oid

- nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish;
- rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og'zaki tasvirlash;
- bo'g'in ko'chirish, bosh harflar imlosiga rioya qilish;
- berilgan rasm asosida, odam yoki ma'lum voqeani tasvirlab, 3-4 ta gap tuzib yoza olish;
- nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish;
- bo'g'in ko'chirish, bosh harflar imlosiga rioya qilish;

Lingvistik bilimlarni egallashga oid

- unli va undosh harflar talaffuzi, imlosini bilish, og'zaki va yozma nutqda to'g'ri qo'llay olish;
- bo'g'in ko'chirish va bosh harflar imlosiga rioya qilish kabi bilimlarni o'rgatish belgilab qo'yilgan.

Bugungi kunda ona tili darslarining samaradorligini oshirish maqsadida ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, fanlararo integratsiya masalalari keng targ'ib etilmoqda.

Biz quyida 2-sinf ona tili (1-qism) darsligidagi "Tovushlar va harflar" mavzusini fanlararo integratsiyalash qonuniyatiga tayangan holda "Tabiiy fanlar" misolida ko'rib chiqamiz.

Tovush va harflarning farqini o'rgatishda o'quvchilar tovushlar talaffuz qilinishini, eshitylishini, harflar esa yozilishini, o'qilishini ongli tushunishiga erishish uchun o'quv materialining tabiiy fanlar bilan integratsiyasini ta'minlash lozim. Tovushlar va harflarni o'rganishga yordam beradigan narsa insonning sezgi a'zolaridir. Chunki tovushlar quloq orqali ishityiladi, harflar ko'z bilan ko'rib o'qiladi, yoziladi.

Darslikdagi berilgan topshiriqqa ko'ra inson sezgi a'zolarining ahamiyati, o'rni o'rganish bo'yicha quyidagi amaliy ishlarni tashkil etish mumkin.

- Kitobingizni qo'lingizga oling. Kaftingiz bilan uni paypaslab ko'ring. Kitob varag'i qanday ekan? (Kitob silliq ekan).

- Bir qo'lingizda daftaringizni, bir qo'lingizda kitobingizni ushlang. Qaysi biri og'irroq ekan? (Kitob og'ir)

- Kitobingizning 17-betini oching, mavzuni o'qing. (Unli tovushlar va harflar)

- Endi mavzuni men ovoz chiqarib o'qiyman, nimani o'qiganimni eshitying. (Mehmondo'st o'zbek xalqi).

- O'quvchilar, kitobning ham hidi borligini bilasizmi? (Yo'q)

- Kitobingizni hidlab ko‘ring, hidni sezdingizmi? (Ha)
- Yana nimalarda hid bor? (Gul, meva, ...)
- Mehmon kelganda dasturxoniga birinchi bo‘lib nima qo‘yamiz? (Non)
- Endi tandirdan uzilgan nonning hidi qanday? Mazasichi? (Juda yoqimli)
- Siz kitobning silliqqligini, nima yozilganini, men nimani o‘qiganimni, hidini qanday bildingiz? (Ushlab ko‘rib, ko‘z bilan ko‘rib, eshitib, burnimiz bilan hidlab ko‘rib)
- Ko‘rishimizga, eshitishimizga, hidini sezishimizga nimalar yordam berdi? (Qo‘limiz, ko‘zimiz, qulog‘imiz, ...)
- Biz sezgi a‘zolari orqali kitobning silliqqligini, nima yozilganini, hidini, nonning mazasini sezamiz.
- Insonning sezgi a‘zolari qaysilar? (Teri, burun, ko‘z, og‘iz, quloq)
- So‘zlarga so‘roq bering. (Nima?)
- Ko‘z qanday vazifani bajaradi? (Ko‘rish)
- Odamda nechta ko‘z bor? (2ta)
- Ko‘z faqat odamda bormi? (Hayvonlarda)
- Yana nimada ko‘z bor? (Daraxtning ko‘zi, taxtaning ko‘zi, derazaning ko‘zi, eshikning uzukning ko‘zi)
- Odamlar va hayvonlardan boshqa narsalarda ham quloq borligini bilasizmi?
- Yana nimalarning qulog‘i, og‘zi bor? (Qozonning qulog‘i, qalpoqning qulog‘i, chuchvaraning qulog‘i)
- Topshiriqqa asosan muammoli savollarda qatnashgan sezgi a‘zolarini tovush va harf nuqtayi nazardan tahlil qilishga o‘tamiz. Masalan:
- Quloq so‘zida nechta tovush bor? (Tovush va harflar haqidagi bilimlar 1-sinfda o‘rganilgan)? (5ta tovush bor)
- Unli tovushlarini ayting. (u, o)
- Undosh tovushlarini ayting. (q, l, q)
- Nechta bo‘g‘indan iborat? Bo‘g‘inlarni ayting (2 bo‘g‘indan iborat, qu-loq)
- Birinchi bo‘g‘inni talaffuz qiling. (qu-)
- Ikkinchi bo‘g‘inni talaffuz qiling (-loq)
- Ikkala bo‘g‘inning talaffuzidagi farqni sezdingizmi? Qaysi biri cho‘zib talaffuz qilinayapti? (quuuuu-)
- Qaysi bo‘g‘inning yo‘li “yopiq” ekan? (-loq)
- Yuqoridagi keltirilgan dalillarga qanday xulosalar chiqarish mumkin? (Unli bilan tugagan bo‘g‘inlar cho‘zib aytiladi. Undosh bilan tugagan bo‘g‘inlar qisqa talaffuz qilinadi)
- Tovush va harflarni o‘rgatishda o‘quvchilar jonli va jonsiz narsalarning nomi, harakatini bildirgan so‘zlar, ya‘ni morfologik ko‘nikmalariga tayangan holda amalga oshiriladi. Topshiriq mazmunini to‘liq tushunish uchun shaxs va narsaning nomini va harakatni bildirgan so‘zlar va ularga beriladigan so‘roqlar haqidagi bilimlar juda zarur. 1-sinfda so‘zlar yordamida narsalarning nomini, belgisini va harakatini ifodalash mumkinligi, shaxs va narsalarga kim? nima? shaxs va narsaning belgilariga qanday? qanaqa? shaxs va narsaning harakatiga nima qildi? Nima qiladi? nima qilyapti? so‘roqlari berilishini, so‘zlaning shaxs, narsa, harakat, belgi, sanoq va miqdorni ifodalashi o‘rgatilgan edi. Biz endi o‘quvchilarning morfologik bilimini oshirishga qaratilgan o‘quv topshiriqlari xususida fikr yuritamiz.
- Endi diqqat bilan eshiting (O‘quvchilarga tabiiy tovushlar, fizik tovushlar, nutq tovushlari haqida ma‘lumot beriladi). Qanday tovushlarni eshitayapsiz? (Maktab hovlisidagi o‘quvchilarning ovozi, mashinaning ovozi, partadoshimizning nafas olishini, shamolning,)
- Rasmlarda nimalarni ko‘rayapsiz? (shaxs va narsaning nomini bildirgan so‘zlar: daraxt, o‘quvchilar, samolyot, qushlar)
- So‘zlarga so‘roq bering. (Nima? Kimlar? Nimalar?)
- Barglar nima qiladi? (shaxs va narsaning harakatini bildirgan so‘zlar: o‘sadi, sarg‘ayadi, to‘ki-ladi)
- Odamlar nima qiladi? (shaxs va narsaning harakatini bildirgan so‘zlar: so‘zlashadi, kuladi, yuradi,)
- Samolyot nima qiladi? (shaxs va narsaning harakatini bildirgan so‘zlar: uchadi, qo‘nadi, ko‘tari-ladi, ...)

- Qushlar nima qiladi? (shaxs va narsaning harakatini bildirgan soʻzlar: uchadi, sayraydi, uchadi, qoʻnadi, ...)

Shunga oʻxshash savol-javoblardan keyin eshitish aʼzosi orqali barglar shitirlashini, odamlar soʻzlashuvini, samolyot gʻuvullashini, qushlar chugʻurlashini eshitish mumkinligi haqida oʻquvchilarda umumiy xulosa paydo qilish mumkin.

- Oʻquvchilar, biz shamol, barg, samolyot, qushlar haqida fikr yuritdik. Bir eslaylik, kim shular haqida topishmoq, sheʼr, maqol ... aytadi?

- Shamol essa barglar qanday ovoz chiqaradi? (shitir-shitir)

- Samolyot uchganda qanday ovoz eshitaladi? (gʻuv-gʻuv)

- Qushlar qanday sayraydi? (chugʻur-chugʻur, chirq-chirq)

Bundan tashqari, topshiriq orqali, feʼllarning yasalishi, ularning zamon shaklini ham amaliy oʻrgatish mumkin. Oʻquvchilarga "Barglar nima qilayapti? Odamlar nima qilayapti? Samolyot nima qilayapti? Qushlar nima qilayapti?" kabi savollar orqali feʼllarning hozirgi zamon shaklini oʻrgatishga zamin tayyorlash mumkin.

1-mashq (2-sinf Ona tili (1-qism), 6-bet, mavzu: "Tovushlar va harflar", yozma bajarishga moʻljallangan, qisman ijodiy mashq). "Rasmlarga eʼtibor bering. Qavslarni ochib, gaplarni toʻgʻrilab oʻqing va koʻchiring".

1. *Kuchli shamol koʻtarilib, dengiz toʻlqinlari (shovullamoq) boshladi.*

2. *Mushukcha (miyovlamoq) yugurib daraxt tepasiga chiqib oldi.*

3. *Choʻponning boʻribosar iti tuni bilan (vovullamoq) chiqdi.*

Oʻquvchilarning oʻquv topshiriqlarini aniq va toʻliq idrok qilishida ongliklik muhim ahamiyat kasb etib, bu taʼlim tamoyillari orqali shakllantiriladi.

Taʼlim tamoyillari oʻquv tarbiya jarayoniga qoʻyiladigan ijtimoiy talablar, taʼlimni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishda rioya qilinadigan qoidalar sifatida amal qiladi.

Taʼlimda ongliklikni taʼminlashning asosiy vositalaridan biri koʻrgazmalilikdir. Koʻrgazmali oʻqitish taʼlimning asosiy tamoyillaridan biri boʻlib, bolalar bevosita idrok qiladigan aniq obrazlarga asoslanadi. Koʻrgazmalilik mavhum tushunchalar va soʻzlarga asoslanmagan oʻqitish tamoyili boʻlib, oʻquvchilarni mustaqil kuzatishga, oʻz hayotiy tajribalari asosida mulohaza yuritishga, oʻrganilayotgan tushuncha va kuzatilayotgan obraz orasidagi mantiqiy bogʻliqlikni aniqlay olishga oʻrgatadi.

Oʻquv jarayonida koʻrgazmali vositalardan foydalanish oʻquvchining yosh xususiyati, tafakkur darajasiga koʻra belgilanadi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida aniq fikrlash ustun boʻlib, ular rasm, jadvallar asosida narsa-voqealarning mohiyatini chuquroq anglaydi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda aniq-obrazli, harakatchan-obrazli fikrlash shakllarining taraqqiy etganligi taʼlimda koʻrgazmali qurollardan koʻproq foydalanishni taqozo etadi.

Oʻquvchilarning hayotiy tajribasi oshgan sari, unlarda tafakkurning mavhumalshtirish, umumlashtirish, ajratish kabi sifatleri ham rivojlanib boradi. Oʻquvchi oʻz bilimlariga tayangan holda induktiv va deduktiv xulosalar chiqarishni oʻrganib boradi.

Katta maktab yoshidagi oʻquvchilar bilimlarini taʼriflar, aksiomalar, xulosalar, farazlar shaklida qabul qila oladi. Shuning uchun yuqori sinfda koʻrgazmali qurol sifatida turli chizmalar, ramziy belgilar, diogrammalardan foydalanish mumkin.

Oʻquv materiallari asosida oʻquvchilarning tafakkuri va nutqini oʻstirish uchun taʼlim-tarbiyaviy matnlar hamda rasmlardan foydalaniladi. Rasmlar oʻquvchilarning savollarga javob berish koʻnikmasini, soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilish qobiliyatini rivojlantirishi, oʻz fikrlarini ogʻzaki va yozma ravishda bildirishga oʻrgatishi, obrazli tafakkurini oʻstirishi, mustaqil ravishda soʻz tanlash, gap va hikoya tuzish uchun xizmat qilishi kerak.

Koʻrgazmalilik tamoyilini buyuk cheh pedagogi Y.A.Komenskiy shunday izohlaydi: "Agar biron-bir narsani bir nechta sezgi aʼzolari orqali idrok ettirish mumkin boʻlsa, u narsani idrok qilish uchun bir nechta sezgi aʼzolarini ishga solish kerak, yaʼni, eshitib boʻladigan narsalarni eshittirish bilan, hidlarni – hidlatish, taʼmni tatib koʻrish, ushlab koʻrish mumkin boʻlgan narsalarni ushlatib koʻrsatish vositasi bilan idrok qildirish lozim".

Rasm bolaning his-tuygʻulariga taʼsir qiladi. Rasmlar maktab oʻquvchisiga tanish boʻlgan hodisalarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Uning hayotiy bilimini oshiradi.

Boshlangʻich sinf darslarida taʼlimiy rasmlardan keng foydalaniladi. Rasmlar oʻquvchilar va oʻqituvchi uchun ham, darsda foydalanish uchun ham qulay vosita. Lekin har doim ham yetarli darajada

ifodali va ta'sirli emas. Badiiy suratlar o'quvchilarni kuzatuvchanlikka o'rgatadi, ularning tasavvurini rivojlantiradi, san'atni tushunishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar birinchi navbatda rasmning mavzusini (u tasvirlangan) aniqlab, masalalar bo'yicha rasmni tasvirlashadi. Ikkinchidan, uning tarkibi, oldingi fon, obyektlarning joylashuvini tahlil qilishadi. Uchinchidan, qahramon (agar mavjud bo'lsa)ning harakatlari aniqlashtirishadi.

Ta'limning ko'rgazmalilik tamoyilini ta'minlash maqsadida darslikda 1-mashqdagi gaplarga mos rasmlar berilgan. Rasmlarda dengiz to'lqinlari, mushukchanning daraxtga chiqayotgani, yomg'irda turgan ikkita it tasvirlangan.

Berilgan gaplarga mos bo'lgan fe'l shakllarini tanlash uchun rasmlar batafsil tahlil qilinishi kerak. Tahlil jarayonida rasmlardagi obyektlar, ularning nomi, shakli va ranggi, harakati, miqdori haqidagi savollar orqali o'quvchilarning morfologik bilimi yanada mustahkamlanadi.

- Birinchi rasmga diqqat bilan qarang. Nimalarni ko'rayapsiz? (dengiz to'lqinlari, toshlar, suv, qum)

- Dengiz to'lqinlari qanday tasvirlangan? (Ko'k rangda)

- Toshlar-chi? Ularning shakli qanday? (To'q jigarrangda tasvirlangan. Toshlar esa katta-kichik, har xil)

- Dengiz sohilida nima bo'ladi? (Qum bor)

- Qumni ko'rganmisiz? Rang qanaqa? (Sariq)

- Siz ham dengizni ko'rganmisiz? Qayerda yoki nima vositasida ko'rgansiz? (Televizorda, multfilmlarda, Internet tarmog'ida, rasmlarda, ...)

- Qaysi multfilmda ko'rgansiz? (...)

- Dengiz to'lqinlari qanday hosil bo'lishini bilasizmi? (Shamol bo'lganda)

- O'quvchilar, dengiz suvi qanaqa ekanligini bilasizmi? (Sho'r)

- Nima uchun dengiz suvi sho'r bo'ladi? (Tuz ko'pligi uchun)

- Dengizda qanday hayvonlar yashaydi? (Baliqlar, toshbaqalar, ...)

- Ikkinchi rasmda nimalar tasvirlangan? (Daraxtlar, mushukcha, ariq, ...)

- Rasmda qanaqa ranglarni ko'rayapsiz? (Yashil, malla, ko'k, qora, ...)

- Sizningcha, rasmda qaysi fasl tasvirlangan? (Bahor, yoz)

- Qaysi hayvonni ko'rayapsiz? (Mushuk)

- Mushuk qanday hayvon? (Uy hayvoni)

- Mushuk nima qiladi? (Yuguradi, uxlaydi, sut ichadi, o'ynaydi, ...)

- Mushuklarning rangi qanaqa bo'ladi? (Oq, qora, malla, kulrang, ola-bula, ...)

- Kimning uyida mushuk bor? Uning laqabi nima? (...)

- Bu mushukka ham laqab qo'ying. (Mosh)

- Uchinchi rasmda nimalarni ko'rayapsiz? (Itlarni)

- Rasmda qaysi tabiat hodisasi tasvirlangan? (Yomg'ir yog'ishi)

- Nechta it bor ekan? (Ikkita)

- Qaysi it katta ekan? O'ngdagimi? Chapdagimi? (Chapdagi it)

- Itlarning rangi qanaqa? (Oq-qora, malla, ...)

- Ularga qanday laqab qo'yamiz? (Qoplon, Sharik, ...)

- Sizningcha, qaysi fasl tasvirlangan? (Bahor)

- Nima uchun bahor fasli deb o'yladingiz? (Yomg'ir yog'ayotgani uchun)

- Yomg'ir kuz faslida ham yog'adiku? (Ha, lekin atrof yam-yashil. Kuzda daraxt barglari sarg'ayadi)

- Itlar qayerda uchrashib qolishgan? (Yo'lda, ko'prik ustida, ...)

- Itlar nima qilishayapti? (Gaplashishayapti)

- Itlar ham bir-birlari bilan gaplasha oladimi? Qanday? (Ha, o'z tilida)

- Ular nima haqida gaplashayotgan bo'lishi mumkin? (...)

- Itlar yana nima qiladi? (Yuguradi, uyni qo'riqlaydi, uxlaydi, suyak yeydi, ...)

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda to'lqin, mushuk, itning ovozi eshittirish, harakatini ko'rsatish ham mumkin. Bu o'quvchilarda tasavvurlarning kengayishiga yanada ko'proq yordam beradi.

- Endi hamma diqqat bilan eshitsin. Nimaning ovozi eshitayapsiz? (Dengiz to'lqinlari, mushuk, itning ovozi qo'yib beriladi. O'quvchilar nimaning ovozi ekanligini aytishadi)

- Dengiz qachon shovullaydi? (Shamol ko'tarilganda)
- Siz ham to'liqning ovozini hosil qiling. (Shov-shov)
- Mushukchaning ovozini o'xshatib bering. (Miyov-miyov)
- Mushukcha uxlaganda qanday ovoz chiqaradi? (Xur-xur)
- It-chi, qanday ovoz chiqaradi? (Vov-vov)

O'quvchilarda rasmlar haqida tasavvur hosil qilinganidan keyin berilgan gaplarni morfologik, sintaktik, fonetik jihatdan taslil qilish mumkin.

Qavs ichida berilgan shovullamoq, miyovlamoq, vovullamoq yasama fe'llari taqlid so'zlardan hosil qilingan. Ushbu mashq orqali taqlid so'zlardan fe'llar yasash mumkinligini va zamon shakllarini amaliy o'rgatish mumkin.

Berilgan yasama fe'llarga o'quvchilar zamon qo'shimchalaridan mosini qo'yib, gaplarni yozishlari kerak.

Fe'l so'z turkumiga oid so'zlarga uch xil savol beriladi: Nima qildi? Nima qilayapti? Nima qilmoqchi? Bu savollar ish-harakatning bajarilish vaqtiga qarab, ya'ni zamoniga qarab beriladi. Shu paytgacha o'quvchilar ish-harakatning bajarilgan vaqtini, zamon qo'shimchalarini o'rganishmagan. Shu sababli qavs ichida berilgan fe'llarga mos savollarini to'g'ri berish juda muhim.

- Birinchi gap nima haqida? (Dengiz to'liqlari haqida)
- Dengiz to'liqlari nima qiladi? (Shovullaydi)
- Kuchli shamol ko'tarilib, dengiz to'liqlari nima qila boshladi? (Shovullay boshladi)
- O'qigan gagingiz nechta so'zdan iborat? (7ta)
- Shu fikrni ikkita gap bilan ifodalang. (Kuchli shamol ko'tarildi. Dengiz to'liqlari shovullay boshladi)

boshladi)

- Qanday shamol ko'tarildi? (Kuchli shamol)
- Shovullamoq so'zini qanday o'zgartirdik? (Shovullay)
- Kuchli shamol essa qanday ovoz chiqadi? (Huvvv-huvvv)
- Mushukcha nima qilib yugurib daraxt tepasiga chiqib oldi? (Miyovlab)
- Gap nima haqida? (Mushuk haqida)
- Mushuk nima qildi? (Daraxtga chiqib oldi)
- Mushuk qayerga chiqib oldi? (Daraxt tepasiga)
- Gap nechta so'zdan tuzilgan? (7ta)
- Shu 7 ta so'zdan yana shunday mazmunda gaplar tuza olamizmi? (Mushuk miyovladi. Yugurib daraxt tepasiga chiqdi.)

daraxt tepasiga chiqdi.)

- Gaplarning mazmuni o'zgardimi? (Yo'q)
- Birinchi va ikkinchi gaplardan kelib chiqib qanday xulosa chiqarish mumkin?

Ikkita kichik gapdan bitta gap hosil qilish mumkin.

Bitta katta gapni ikkita kichik gapga aylantirish mumkin.

- Uchinchi gap nima haqida? (Cho'ponning iti haqida)
- Cho'ponning bo'ribosar iti tuni bilan nima qilib chiqdi?
- Cho'ponning iti qachon vovulladi? (Tuni bilan)
- Cho'pon kim? U nima qiladi? (Qo'y boqadi)
- Cho'pon qo'ylarni qayerda boqadi? (Tog'da, yaylovda, ...)
- Cho'ponning iti qanday ekan? (Bo'ribosar)
- Bo'ribosar it qanday bo'ladi? (Katta, kuchli, ...)
- It cho'ponlarga nima uchun kerak? (Qo'ylarni bo'ridan himoya qilish uchun)
- Shuning uchun ham cho'ponning iti qanday ekan? (Bo'ribosar ekan)
- Vovullab so'zini qaysi so'z bilan almashtirish mumkin? (akillab, hurib,)
- Qavs ichidagi so'zlarni qanday o'zgartirdik? (Shovullay, miyovlab, vovullab)
- Gaplarning mazmuni qanday o'zgardi? (.....)

Gaplar to'liq tahlil qilinganidan keyin o'quvchilar daftarlariga yozishadi.

Mashq "Tovushlar va harflar" mavzusiga oid bo'lganligi uchun tanlangan so'zlarni fonetik jihatdan tahlil qilish orqali ta'limning keying davrida o'rganiladigan unli va undosh tovushlar, ularning talafuzi, harf birikmalari, bo'g'inni o'rganishga ham tayyorlash mumkin.

- Shovullay, miyovlab, vovullab so'zlarini bo'g'inlarga ajrating. Necha bo'g'inli? (Sho-vul-lay, mi-yov-lab, vo-vul-lab, hammasi 3 bo'g'inli)

- Nima uchun soʻzlardagi boʻgʻinlar soni teng? Buni qanday aniqladingiz? (Unli tovushlar soni bir xil)

- Qaysi soʻzda harf birikmasi bor? (Shovullay)

- Shu soʻzlarda qanda oʻxshashlik bor? (Boʻgʻinlar soni teng, hammasining birinchi boʻgʻini bitta undosh, bitta unidan, ikkinchi, uchinchi boʻgʻinlari ikkita undosh, bitta unidan tuzilgan, ...)

Xulosa. Mashq mazmunan qisman ijodiy (qayta xotirlash) tipda boʻlib, oʻquvchilarning bor ijodiy imkoniyatini toʻliq yuzaga chiqarishga qaratilmagan. Bizningcha, mashq uchun qoʻshimcha ijodiy topshiriq berilsa oʻquvchilarning tafakkuri yanada oʻsadi. Boshlangʻich sinf oʻquvchisida mustaqil fikr yuritish koʻnikmasining shakllanishi, ijodiy faoliyatlarining tarkib topishida ijodiy mazmundagi topshiriqlar yaxshi samara beradi. Shundan kelib chiqib biz mashq uchun quyidagicha ijodiy topshiriq berishimiz mumkin: "Uch guruhga ajraling. Birinchi guruh 1-rasmga mos kichik matn yarating. Ikkinchi guruh 2-rasmga oʻxshash oʻzingiz koʻrgan holatni soʻzlab bering. 2. Uchinchi guruh rasmga mos qiziqarli hikoya tuzing."

Adabiyotlar

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida"gi farmoni. PF-60-son. 2022-yil 28-yanvar. – www.lex.uz

2. Ona tili fanidan Milliy oʻquv dasturi. -Toshkent, 2021. – 256 bet.

3. Kuranov S.D. 1-sinf Ona tili (1-qism) darsligi. -Toshkent: "Novda", 2023. – 88 bet.

4. Kuranov S.D. 2-sinf Ona tili (1-qism) darsligi. -Toshkent: "Novda", 2023. – 88 bet.

5. Олимов Қ.Т. Махсус фанлардан ўқув адабиётларини яратишнинг назарий ва услубий асослари. Педаг. фан. док. ... дис. – Т.: ТДПУ, 2005. –274-б.

6. Roziqov O.R., Mahmudov M.H., Adizov B.R., Hamroyev A.R. Ona tili didaktikasi. –Т.: "Yangi asr avlodi", 2005. - 388 bet.

7. Roziqov O.R., Mahmudov M.H., Adizov B.R. Umumiy didaktika. -Toshkent, 2009. -434 bet.



	<i>O'smirlar guruhida psixologik muhofaza motivatsiyasini tadqiq qilishning amaliy - metodik asoslari</i>
205	Жўраев Қўлдошжон Исмамулло ўғли <i>Сущность и структура профессиональной компетенции</i>
208	Idiyeva Manuchehra Ikrom qizi <i>Bolalarni maktabga tayyorlashning innovatsion-psixologik mexanizmlari</i>
213	Yuldashova Dilafruz Shavkatovna <i>Talabalarda o'quv motivatsiya rivojlanishining dinamik xususiyatlari</i>
217	Nazaraliyeva Marxabo Hayitboyevna <i>Bo'lajak ofiserlardagi tolerantlikning shaxs qadriyatlar timzimi bilan bog'liqligini o'ziga xos xususiyatlari</i>
13.00.00 – PEDAGOGIKA	
221	Narzullayev Nuriddin Homit o'g'li <i>Geografiya darslarida fanlararo bog'lanish metodikasidan foydalanish</i>
224	Husenova Aziza Sharipovna <i>Blum taksonomiyasi orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish yo'llari</i>
229	Садуллоева Махфуза Гайбуллоевна <i>Система организации непрерывной педагогической практики в начальных классах</i>
233	Бабаева Шоира Баймуродовна <i>Творческое образование - будущее учебного процесса</i>
237	Ashurova Marhabo Sayfulloyevna <i>Buxoro jadidlarining ta'lim-tarbiyaga oid asarlarida yangi usul maktablarida o'qitish imkoniyatlari</i>
242	Himoyeva Sarvarbegim Jamilovna <i>Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quv-biluv topshiriqlarini tashkil etish muammolari</i>
246	Yusufzoda Shabnami Yunus <i>Yozuvga o'rgatish jarayonida o'quv qurollaridan foydalanish texnologiyasini takomillashtirish</i>
252	Yuldasheva Mashxura Muzaffarovna <i>Qadriyatli yondashuv asosida talabalarda tolerantlik tafakkurini takomillashtirish texnologiyasi</i>
10.00.00 – FILOLOGIYA	
255	Ozodova Vasila Ikrom qizi <i>Gazeta nutqidagi frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari</i>
260	Shokirova Marxabo Sharifovna <i>O'zbek va ingliz tillarida rasmiy uslubda stilistik vositalarning foydalanishdagi o'xshashlik jihatlari</i>
266	Jahonova Nargiza Yunus qizi <i>Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirishga qaratilgan mashqlar va ularning tizimi</i>
271	Ozodova Madina Hamza qizi <i>O'quvchilar nutqiy madaniyatini tarkib toptirishda ona tili va o'qish savodxonligining ahamiyati</i>
275	Olloqova O'g'iljon Mamanazarovna <i>2-sinf ona tili darsligi: fonetik va morfologik bilimlar tizimi</i>
283	Sharopova Zarnigor Tolib qizi <i>Boshlang'ich sinf ona tili savodxonligi darslarida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish</i>
288	ОТЧЕТ ПО РЕЗУЛЬТАТАМ ПРОВЕДЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО КОНГРЕССА «ПСИХОЛОГИЯ XXI СТОЛЕТИЯ» 15 - 16 марта 2024 года